

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi

Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi

Jamoatchilik kengashi raisi



A. Sa’dullayev

2021-yil 29-mart

**O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi  
Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining  
3 - sonli BAYONI**

2021-yil 27-mart

Toshkent shahri

- Raislik qiluvchi:** A. Sa’dullayev – O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori, Jamoatchilik kengashi raisi
- Ishtirok etganlar:** O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a‘zolari (ro‘yxat bo‘yicha)
- Taklif etilganlar:** “O‘zbekiston milliy kinokomissiyasi” NNT prodyuseri O.Abdushukurov, “Ijtimoiy media loyihalar markazi” NNT rahbari J.Mirzayev, “O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi” NNT rahbari R.Umarov, “O‘zbekiston yosh fermerlari Kengashi” NNT rahbari M.Inoyatov, “Respublika yosh olimlar kengashi” NNT rahbari S.Saidova.
- Kvorum:** 86,7 foiz. (Jamoatchilik kengashi 15 nafar a‘zolarining 13 nafari). Yig‘ilish qaror qabul qilishga vakolatli.

**KUN TARTIBI:**

- 1. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan e‘lon qilingan ijtimoiy buyurtmalar tanlovida ishtirok etish bo‘yicha kelib tushgan loyihalarni ko‘rib chiqish to‘g‘risida.**
- 2. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida mablag‘ ajratilgan loyihalar hisoboti hamda loyihalar uchun moliyalashtirishning qolgan qismini amalga oshirish masalasini ko‘rib chiqish to‘g‘risida.**

---

*(A.Sa’dullayev, D.Kattaxanova, U.Xalbekova, X.Sattorov, I.Xoldarova, Sh.Saparov, A.Yunusov, I.Nuriddinov, M.Mirsultonov, A.Mirkamilov, R.Meliko‘ziyev, S.Jo‘rayev, A.Muminov, A.Sa’dullayev)*

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori, Jamoatchilik kengashi raisi – A.Sa’dullayev so‘zga chiqib, Jamoatchilik kengashi a‘zolari mazkur yig‘ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar bilan birma-bir tanishtirdi.

Jamoatchilik kengashi a'zosi - O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Yoshlarga oid dastur va loyihalarni amalga oshirish boshqarmasi boshlig'i S.Jo'rayev tomonidan kun tartibiga qo'shimcha "Baholash varaqalarida ballarni hisoblab chiqish uchun hisoblash guruhi tuzish to'g'risidagi" birinchi masalani kiritish bildirildi va bu to'g'risidagi masala ovozga qo'yildi.

Masala yuzasidan takliflar ovozga qo'yildi. Ovozga berish yakunlariga ko'ra:

Tarafdor – 13 nafar yoki 100 foiz,

Qarshilar – yo'q, Betaraflar – yo'q.

**Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan,** O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi to'g'risida nizomning 28-bandiga muvofiq, hisoblash guruhi jamoatchilik kengashi a'zolari orasidan 3 kishidan iborat tarkibda saylanishi hamda asosiy vazifasi baholash varaqalaridagi ballarni hisoblab chiqish va Jamoatchilik kengashi a'zolariga e'lon qilish ekanligi bildirildi.

Jamoatchilik kengashi a'zosi - S.Jo'rayev tomonidan hisoblash guruhi a'zolari tarkibiga quyidagi nomzodlar va yana bir nafar qo'shimcha nomzod taklifini berish so'raldi:

1. Jo'rayev Sardor A'zamovich – Jamoatchilik kengashi a'zosi, Yoshlar ishlari agentligi Yoshlarga oid dasturlar va loyihalarni amalga oshirish boshqarmasi boshlig'i
2. Muminov Abdulaziz Majid o'g'li – Jamoatchilik kengashi kotibi, Yoshlar ishlari agentligi Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi boshlig'i

Jamoatchilik kengashi a'zosi – A.Yunusov tomonidan hisoblash guruhi a'zolari tarkibiga nomzodlarni qayta ko'rib chiqish va quyidagi tarkibda shakllantirish taklifi bildirildi:

1. Nuriddinov Isomiddin Quvondiqovich – Jamoatchilik kengashi a'zosi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi boshqarma boshlig'i
2. Xoldarova Indira Abdulkarimovna – Jamoatchilik kengashi a'zosi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi o'rinbosari
3. Muminov Abdulaziz Majid o'g'li – Jamoatchilik kengashi kotibi, Yoshlar ishlari agentligi Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi boshlig'i,

Jamoatchilik kengashi a'zosi – A.Yunusov tomonidan bildirilgan taklif Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan ma'qullandi.

Masala yuzasidan takliflar ovozga qo'yildi. Ovozga berish yakunlariga ko'ra:  
Tarafdor – 13 nafar yoki 100 foiz,  
Qarshilar – yo'q, Betaraflar – yo'q.

**Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan,** Jamoatchilik kengashi a'zosi - S.Jo'rayev tomonidan Yoshlar ishlari agentligi tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi ajratish bo'yicha Jamoatchilik kengashining 2021-yil 1-mart kuni o'tkazilgan 2-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan hamda qayta hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan qaytarilgan quyidagi loyihalar joriy yig'ilishda ko'rib chiqish uchun qayta kiritilganligi ma'lum qilindi:

1. "Ijtimoiy media loyihalar markazi" NNT tomonidan taqdim qilingan "Bizdan maslahat", "Men kimman?" motivatsion-kouching videoroliklar tayyorlash loyihasi. Loyiha qiymati 499 000 000 (to'rt yuz to'qson to'qqiz million) so'm;

2. "O'zbekiston milliy kinokomissiyasi" NNT tomonidan taqdim qilingan "O'zbekistonlik" hujjatli filmi tayyorlash loyihasi. Loyiha qiymati 1 800 000 000 (bir milliard sakkiz yuz million) so'm;

3. "O'zbekiston yosh fermerlari kengashi" NNT tomonidan taqdim qilingan "Fermerlarning 12 yoquti" loyihasi. Loyiha qiymati 718 000 000 (yetti yuz o'n sakkiz million) so'm;

4. "O'zbekiston yoshlari ummumjahon assotsiatsiyasi" NNT tomonidan taqdim qilingan "Vatandosh tajribasi" loyihasi. Loyiha qiymati 448 700 000 (to'rt yuz qirq sakkiz million yetti yuz ming) so'm;

5. "Respublika yosh ijodkorlar kengashi" NNT tomonidan taqdim qilingan "Bolalar uchun IT qo'llanma yaratish" loyihasi. Loyiha qiymati 401 180 000 (to'rt yuz bir million bir yuz sakkiz ming) so'm;

6. "Respublika yosh olimlar kengashi" NNT tomonidan taqdim qilingan "Ilm-fan javohirlari" loyihasi. Loyiha qiymati 500 000 000 (besh yuz million) so'm.

Shuningdek, Jamoatchilik kengashining 2021-yil 1-martdagi 2-sonli yig'ilishi hamda Yoshlar ishlari agentligi direktorining 2021-yil 19-martdagi 01-10-51-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi to'g'risidagi nizomda belgilangan loyihalarni ko'rib chiqish tartibi va baholash mezonlari tushuntirildi.

Sanab o'tilgan loyihalar bo'yicha ularni taqdim etgan nodavlat-notijorat tashkilotlar rahbarlari tomonidan loyihalarning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida ma'lumot berildi.

Jamoatchilik kengashi a'zolarining muhokamalari jarayonida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4862-son Qarorida Yoshlar ishlari agentligiga yuklatilgan vazifalar to'g'risida Jamoatchilik kengashi a'zolarini xabardor qildi.

Agentlik tomonidan ajratiladigan davlat ijtimoiy buyurtmalarining asosiy maqsadi aholiga o'zining turmushini yaxshilash, kasb-hunar va biznes bilan shug'ullanish orqali daromad topish hamda ularga bunday faoliyatni yo'lga qo'yishning amaliy jihatlarni o'rgatishga qaratilgan "kouching" video materiallar va darsliklar, motivatsion roliklar tayyorlashga qaratilganligi ta'kidlandi.

“Respublika yosh ijodkorlar kengashi” NNT tomonidan taqdim qilingan “Bolalar uchun IT qo‘llanma yaratish” loyihasi ko‘rib chiqilib, loyihaning maqsadi 5-12 yoshli bolalar uchun zamonaviy texnologiyalarni dastlabki tushunchalarini sodda va tushunarli usulda o‘rgatishga qaratilgan qo‘llanmani 100 000 ming nusxada chop etish ekanligi, biroq mazkur maqsad tanlov maqsadiga mos kelmasligini inobatga olib, Jamoatchilik kengashi tomonidan bir ovozdan moliyalashtirish tavsiya etilmadi.

“5 tashabbus loyiha ofisi” NNT tomonidan taqdim qilingan “O‘zbekiston uchun 100 g‘oya” loyihasini qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish jarayonida, mazkur loyihaning maqsadi, vazifalari va kutilayotgan natijalar ham davlat ijtimoiy buyurtmasi ajratish yuzasidan e‘lon qilingan mazkur tanlov talablariga mos emasligi munosabati bilan, hujjatlar qayta takomillashtirilmaganligi ma‘lumot uchun aytib o‘tildi.

Jamoatchilik kengashi a‘zolarining muhokamalaridan so‘ng, har bir loyiha bo‘yicha baholash mezonlariga muvofiq baholash varaqasiga 1 dan 5 gacha samaradorlik darajasida (ya‘ni, 1-eng past samaradorlik, 2-qoniqarsiz va nisbatan samaradorlik past, 3...4...5 tartibida) ballar qo‘yildi.

Baholash natijalariga ko‘ra, hisoblash guruhi tomonidan har bir loyihaga qo‘yilgan o‘rtacha ballar va Jamoatchilik kengashi a‘zolarining umumiy soniga nisbatan o‘rtacha ko‘rsatkichlar hisoblab chiqildi va quyidagi to‘plangan ballar Jamoatchilik kengashi a‘zolariga tanishtirildi:

1. “Ijtimoiy media loyihalar markazi” NNT tomonidan taqdim qilingan “Bizdan maslahat”, “Men kimman?” motivatsion-kouching videoroliklar tayyorlash loyihasi. Umimiy o‘rtacha to‘plangan ball – 4,09, moliyalashtirishga tavsiya etildi;

2. “O‘zbekiston milliy kinokomissiyasi” NNT tomonidan taqdim qilingan “O‘zbekistonlik” hujjatli filmi tayyorlash loyihasi. O‘rtacha to‘plangan ball – 4,67, moliyalashtirishga tavsiya etildi;

3. “O‘zbekiston yosh fermerlari kengashi” NNT tomonidan taqdim qilingan “Fermerlarning 12 yoquti” loyihasi. Umimiy o‘rtacha to‘plangan ball – 4,16, moliyalashtirishga tavsiya etildi;

4. “O‘zbekiston yoshlari ummumjahon assotsiatsiyasi” NNT tomonidan taqdim qilingan “Vatandosh tajribasi” loyihasi. Umimiy o‘rtacha to‘plangan ball – 3,07, moliyalashtirishga tavsiya etilmadi;

5. “Respublika yosh olimlar kengashi” NNT tomonidan taqdim qilingan “Ilm-fan javohirlari” loyihasi. Umimiy o‘rtacha to‘plangan ball – 2,61, moliyalashtirishga tavsiya etilmadi.

**Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan,** Jamoatchilik kengashi a‘zosi - S.Jo‘rayev so‘zga chiqdi.

Ma‘ruzachi Jamoatchilik kengashining 2-bayoniga asosan 2021-yil 1-martgacha 14 ta tashkilot tomonidan kelib tushgan jami 18 ta loyihalarning tanlov shartlariga ko‘ra kamchiliklari mavjud bo‘lgan 11 ta loyihalarda mavjud kamchiliklar bilan Jamoatchilik kengashi a‘zolari birma-bir tanishtirildi.

Jamoatchilik Kengashining 2020-yilning 21-dekabrda 1-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan hamda umumiy qiymati 2 148 mln. so‘m bo‘lgan 5 ta loyihalarni moliyalashtirish uchun tavsiya etilganligini ma‘lum qildi.

O'tgan davr mobaynida mazkur loyihalar doirasida amalga oshirilgan ishlarni ko'rib chiqish va davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag'larining qolgan qismini moliyalashtirishga tavsiya etish yuzasidan tanlov g'olibi bo'lgan quyidagi loyihalar doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan taqdimot shaklidagi hisobotlari kengash muhokamasiga qo'yildi:

1. "Loyihalar boshqaruvi markazi" NNT tomonidan "Chegarasiz" (umumiy qiymati 500 mln. so'm), "Modul 5" (umumiy qiymati 360 mln. so'm), "Design Club" (umumiy qiymati 320 mln. so'm), "Marketing Uz" (umumiy qiymati 320 mln. so'm) loyihalari doirasida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan taqdimot shaklidagi hisobot;

2. "O'zbekiston yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash markazi" NNT tomonidan "Biznesga qadam" loyihasi (umumiy qiymati 648 mln. so'm) doirasida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan taqdimot shaklidagi hisobot.

Davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida moliyalashtirilishi belgilangan yuqoridagi loyihalar bo'yicha ularni taqdim etgan nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlari tomonidan loyihalar doirasida amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan loyihalarni amalga oshirish yuzasidan joriy holat to'g'risidagi taqdimot shaklidagi hisobotlar tinglanganidan so'ng, ushbu loyihalarni moliyalashtirishning qolgan qismini amalga oshirish ovozga qo'yildi.

Masala yuzasidan takliflar ovozga qo'yildi. Ovozga berish yakunlariga ko'ra:

Tarafdor – 13 nafar yoki 100 foiz,

Qarshilar – yo'q, Betaraflar – yo'q.

### **Kun tartibidagi masalalar yuzasidan Jamoatchilik kengashi**

#### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari orasidan ixtiyoriylik asosida tanlangan Hisoblash guruhi a'zolari 1-ilovaga hamda ular tomonidan hisoblangan loyihalarning umumiy baholash varaqasi 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Aholiga o'zining turmushini yaxshilash, kasb-hunar va biznes bilan shug'ullanish orqali daromad topish hamda ularga bunday faoliyatni yo'lga qo'yishning amaliy jihatlarini o'rgatishga qaratilgan "kouching" video materiallar va darsliklar, motivatsion roliklar tayyorlashga qaratilgan davlat ijtimoiy buyurtmasi tanlovining natijalariga ko'ra 3 ta nodavlat notijorat tashkilotning loyihalari g'olib deb topilsin. Xususan,

"Ijtimoiy media loyihalar markazi" NNT tomonidan taqdim qilingan "Bizdan maslahat", "Men kimman?" motivatsion-kouching videoroliklar tayyorlash loyihasi. Loyiha qiymati 499 000 000 (to'rt yuz to'qson to'qqiz million) so'm;

"O'zbekiston milliy kinokomissiyasi" NNT tomonidan taqdim qilingan "O'zbekistonlik" hujjatli filmini tayyorlash loyihasi. Loyiha qiymati 1 800 000 000 (bir milliard sakkiz yuz million) so'm;

"O'zbekiston yosh fermerlari kengashi" NNT tomonidan taqdim qilingan "Fermerlarning 12 yoquti" loyihasi. Loyiha qiymati 718 000 000 (yetti yuz o'n sakkiz million) so'm.

3. “Respublika yosh ijodkorlar kengashi” NNTning “Bolalar uchun IT qo‘llanma yaratish” loyihasi, “5 tashabbus loyiha ofisi” NNTning “O‘zbekiston uchun 100 g‘oya” loyihalari tanlov maqsadlariga muvofiq emasligini, “O‘zbekiston yoshlari ummujahon assotsiatsiyasi” NNTning “Vatandosh tajribasi” loyihasi va “Respublika yosh olimlar kengashi” NNTning “Ilm-fan javohirlari” loyihasi yetarli ball to‘play olmaganligini hamda qolgan 9 ta loyihalardagi kamchiliklarni ham inobatga olib, mazkur tanlov doirasida ushbu loyihalarni moliyalashtirish rad etilsin (*9 ta loyiha ilova qilinadi*).

4. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligiga:

davlat ijtimoiy buyurtmasi tanlov natijalarini Agentlikning rasmiy veb-saytida va boshqa saytlarda e‘lon qilinishini ta‘minlash;

davlat ijtimoiy buyurtmasi tanlov g‘oliblari bo‘lgan “Ijtimoiy media loyihalar markazi” NNT, “O‘zbekiston milliy kinokomissiyasi” NNT va “O‘zbekiston yosh fermerlari kengashi” NNT bilan belgilangan tartibda shartnomalar imzolash vazifalari yuklatilsin.

5. Tanlov g‘oliblari va Agentlik o‘rtasida tuziladigan shartnoma shartlariga asosan loyihalarda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun sarflanishi ko‘zda tutilgan xarajatlarni tegishli tartibda moliyalashtirish masalasi inobatga olinsin.

Bunda, “Ijtimoiy media loyihalar markazi” NNT tomonidan taqdim qilingan “Bizdan maslahat”, “Men kimman?” motivatsion-kouching videoroliklar tayyorlash loyihasi doirasida kalendar rejaga muvofiq birinchi o‘tkazmada 149 700 000 (bir yuz qirq to‘qqiz million yetti yuz ming) so‘m, ya‘ni loyiha uchun so‘ralayotgan mablag‘ miqdorining 30 foizi ajratilsin.

“O‘zbekiston milliy kinokomissiyasi” NNT tomonidan taqdim qilingan “O‘zbekistonlik” hujjatli filmi tayyorlash loyihasi AQSHda tasvirga olinishini inobatga olib, loyihani amalga oshirish uchun dastlabki 270 000 000 (ikki yuz yetmish million) so‘m, ya‘ni loyiha uchun so‘ralayotgan mablag‘ miqdorining 15 foizi ajratilsin.

O‘zbekiston yosh fermerlari Kengashi NNTning “Fermerlikning 12 yoquti” nomli loyihasi doirasida moddiy-texnik jihozlarni xarid qilish uchun ko‘zda tutilgan xarajatlar hamda oylik ish haqi loyihaning kalendar rejasiga muvofiq birinchi o‘tkazmada 215 400 000 (ikki yuz o‘n besh million to‘rt yuz ming) so‘m, ya‘ni loyiha uchun so‘ralayotgan mablag‘ miqdorining 30 foizi ajratilsin.

6. “Loyihalar boshqaruvi markazi” NNTning “Chegarasiz”, “Modul 5”, “Design Club”, “Marketing Uz” loyihalari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida taqdimot shaklidagi hisoboti 3-ilovaga va “O‘zbekiston yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash markazi” NNTning “Biznesga qadam” loyihasi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida taqdimot shaklidagi hisoboti 4-ilovaga asosan inobatga olinsin.

Shuningdek, ushbu loyihalar to‘g‘risidagi hisobotlar tegishli tartibda to‘liq qabul qilib olinsin hamda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ajratilgan davlat ijtimoiy buyurtmalarini monitoring qilish bo‘yicha maxsus komissiyasiga tekshirish va moliyalashtirishning qolgan qismini amalga oshirish yuzasidan tegishli xulosa berishi uchun kiritilsin.

7. “Loyihalar boshqaruvi markazi” NNT va “O‘zbekiston yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash markazi” NNT loyihalarini moliyalashtirish Agentlik bilan tuzilgan shartnoma shartlariga asosan moliyalashtirish taklifi ma’qullansin.

8. Jamoatchilik kengashi mas’ul kotibi A.Muminov mazkur yig‘ilish bayoni nusxasini uch kun muddatda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligiga yuborsin.

9. Ushbu yig‘ilish bayoni ijrosini ta’minlash va nazorat qilishni Yoshlar ishlari agentligi direktori A.Sa’dullayev zimmasiga yuklatilsin.

**Yig‘ilish kotibi**

A handwritten signature in blue ink, appearing to be 'A. Muminov', written in a cursive style.

**A.Muminov**

Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi  
Jamoatchilik kengashining  
2021-yil 27-martdagi yig'ilishi  
3-sonli bayoniga  
1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmalarini ajratish yuzasidan ko'rib chiqilgan loyihalarni baholash varaqalaridagi ballarni hisoblab chiqish bo'yicha Hisoblash guruhining tarkibi**

<b>№</b>	<b>F.I.Sh</b>	<b>Lavozimi</b>
1.	Nuriddinov Isomiddin Nuriddinovich	O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi boshqarma boshlig'i, <b>Hisoblash guruhining raisi</b>
2.	Xoldarova Indira Abdukarimovna	O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi o'rinbosari
3.	Muminov Abdulaziz Majid o'g'li	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi boshlig'i



**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tomonidan  
2021-yil 27-mart kuni davlat ijtimoiy buyurtmalarini ajratish yuzasidan ko'rib chiqilgan loyihalarni  
UMUMIY BAHOLASH VARAQASI**

- 1-Loyiha - "Ijtimoiy media loyihalar markazi" NNTning "Bizdan maslahat", "Men kimman?" ko'rsatuvlari loyihasi  
2-Loyiha - "O'zbekiston milliy kinokomissiyasi" NNTning "O'zbekistonlik" hujjatli filmi tayyorlash loyihasi  
3-Loyiha - "O'zbekiston yosh fermerlari kengashi" NNTning "Fermerlarning 12 yoquti" loyihasi  
4-Loyiha - "O'zbekiston yoshlari ummujahon assotsiatsiyasi" NNTning "Vatandosh tajribasi" loyihasi  
5-Loyiha - "Respublika yosh olimlar kengashi" NNTning "Ilm-fan javohirlari" ilmiy onlayn jurnali loyihasi

T/r	Jamoatchilik kengashi a'zosi	1-Loyiha	2-Loyiha	3-Loyiha	4-Loyiha	5-Loyiha
1	Sa'dullayev Alisher Zafar o'g'li (Kengash raisi)	3,71	5	4,86	3	Baholanmagan
2	Kattaxanova Dilnoza Sobir qizi	4,29	4,57	3	3,14	2,43
3	Aslonov Abdullo Ubayduloevich*	-	-	-	-	-
4	Xalbekova Umida Akramovna	3,29	4,43	4,43	Qayta hujjat topshirish	Baholanmagan
5	Sattorov Xayrulla Fayzullaevich	3,57	5	5	3,57	3
6	Xoldarova Indira Abdukurimovna	4,29	4,86	4	4	Tavsiya etilmadi
7	Saparov Sherzod Baxtiyarovich	3,71	5	3,43	2,71	2,57
8	Yunusov Alisher Bobomuradovich	4,29	3,86	4,71	3,29	4,57
9	Xudoyberdiyev Xushnud G'ayratovich*	-	-	-	-	-
10	Nuriddinov Isomiddin Nuriddinovich	4,43	4,71	4,29	3,43	2,14
11	Mirsultonov Miraziz Baxrom o'g'li	4,57	4,71	4,71	3,29	2,29
12	Mirkamilov Anvarjon Kozimjonovich	4,29	5	4,14	3,71	3
13	Meliko'ziyev Ravshanbek Isomiddin o'g'li	4,71	5	3,14	1	1
14	Jo'rayev Sardor A'zamovich	4,43	4,57	4,57	3,43	2,71
15	Muminov Abdulaziz Majid o'g'li	3,57	4	3,86	2,29	2,43
<b>JAMI O'RTACHA BALL:</b>		<b>4,09</b>	<b>4,67</b>	<b>4,16</b>	<b>3,07</b>	<b>2,61</b>

\*Xizmat safarida bo'lganligi sababli yig'ilishda ishtirok eta olmadi.

**Hisoblash guruhi a'zolari:**

- Nuriddinov Isomiddin Nuriddinovich  
(Guruh raisi)
- Xoldarova Indira Abdukurimovna
- Muminov Abdulaziz Majid o'g'li

Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi  
Jamoatchilik kengashining  
2021-yil 27-martdagi yig'ilishi  
3-sonli bayoniga  
3-ilova

**“Loyihalar boshqaruvi markazi” NNTning “Chegarasiz”, “Modul 5”,  
“Design Club”, “Marketing Uz” loyihalari yuzasidan amalga  
oshirilgan ishlar to‘g‘risida taqdimot shaklidagi  
Hisoboti**



**“CHEGARASIZ” LOYIHASI**






O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi сейчас 😊  
 мотивирован в **Yoshlar Ishlari Agentligi**  
 27 февраля, 22:22 · Ташкент · 🌐

"Chegarasiz" loyihasi katta kuch va shijoat bilan qaytdi!

Loyihaning yangi mavsumi qahramoni metin matonati ila maqsadlari tomon temir qadamlarni dadil bosayotgan yurtdoshimiz - Murodbek Jigitov!

#motivatsiya #chegasariz




53 100 Ko'rishlar soni



73 406 Qamrov






**5 K**

Formatda tomosha qiling

<https://youtu.be/hMK3Ya1-nik>



IJTIMOYIY TARMOQLARDA

@chegarasiz\_official



## IJODIY JAMOA

**Badiiy rahbar :** Alisher Sa'dullayev  
**Rejissor va Ssenarist :** Anvarbek Suvonqulov  
**Prodyusser :** Ulug'bek Ismatov  
**Ovoz Rejissori :** Dilmurod Bakiyev  
**DOP :** Sarvar Samigov  
**Dron Operator :** Sardor Shavkatov  
**Video Montaj :** Doniyor Abduganiyev  
**2-operatorlar :** Abdumalik Mannopov  
Nodir Nishonov  
**Matnlar muallifi :** Sardorbek Rahmonqulov  
**Texnik hodimlar :** Qodir Gafurov  
Abdusattor Uzakov  
Nilufar Boymatova  
Saidafzal Qulmamatov  
**Dizayner :** Nurjahon Farmonov  
**Rejissor yordamchisi :** Manzura Salayeva  
**Matnni o'qidi :** Muzaffar Mirzarahimov

# MODUL 5

## Modul 5

Yoshlarga turli sohalardan  
BILIM, TAJRIBA va MOTIVATSIYA  
beruvchi platforma

5 turli sohadan yurtimiz va jahonning  
professionallari 555 soniya ichida aniq bir  
mavzuni tushuntirib berishadi


Har oyda bir marta KONFERENSIYA ko'rinishida tashkil etiladi



## AUDITORIYA

Yoshingiz?

1 340 o'tsuv





- 17 - 30 yoshgacha
- Barcha soha bo'yicha
- Respublika doirasida


Jonli auditoriya 1000 kishi

Tadbirga umumiy hisobda 2000 dan ortiq kishi kelgan



## RO'YXATDAN O'TISH

1 340 ОТВЕТОВ  

Принимать ответы 

Har bir tadbirda 1000 dan ortiq ro'yxatdan o'tgan ishtirokchilar

### IJTIMOY TARMOQLARDAGI QAMROV

Jami: 60k obunachi

 **YOU TUBE**

10.9k obunachi  
236.700k ko'rish ar  
1.500.000 umumiy qamrov

 **Modul 5**  
12.9K subscribers

 **INSTAGRAM**



12.6k obunachi

 306 Posts 12.6K Followers 4 Following

 **TIKTOK**

28.3k obunachi  
393.5k ko'rishlar

 **Modul 5**  
28.3K Followers

 **TELEGRAM** 2.3k obunachi 

50 DAN ORTIQ  
EKSPERT-SPIKERLAR



RESPUBLIKA DOIRASIDA  
2TA NUFUZLI FORUMDA  
MEHMON LOYIHA SIFATIDA  
MAXSUS SON TASHKIL ETILGAN.

O'ZBEKISTON YOSHLAR  
FORUMI 2020 LOYIHASIDA

**«YILNING ENG YAXSHI TA'LIM LOYIHASI»  
NOMINATSIYASI G'OLIBI**

## YORITILGAN OAV LAR

The logo for MY5, featuring the letters 'MY5' in a bold, red, sans-serif font on a white rectangular background.

Mening Yurtim 5

The logo for Sevimli, featuring the word 'Sevimli' in a red, sans-serif font with a red circle around the 'i', on a white rectangular background.

Sevimli

The logo for O'zbekiston 24, featuring the text 'O'ZBEKISTON 24' in white, sans-serif font on a dark blue rectangular background.

O'zbekiston 24

The logo for Yoshlar, featuring a green leaf-like icon and the word 'yoshlar' in a green, sans-serif font on a white rectangular background.

Yoshlar

## MODUL5 UNIVERSITET

Ita xalqaro: Yodju Universiteti va Ita O'zbekistonning eng nufuzli: Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiasi universiteti mehmoni bo'lishga ulgurdi.

Hozirda 10ga yaqin oliygohlar bilan aloqa o'rnatilgan

# TADBIR HAQIDA FIKRLAR

## Fikr va takliflaringiz :) 662 engis

662 engis

Modul5 har bir yoshlar uchun motivatsiya y'ani dalida va har bir ishning poydevori boshlash uchun muhimdir

Omad

Men kutgan loyiha

Tajribali odamlardan bilim olish biz kabi yoshlar uchun foydali

Good luck

Modul5 loyihasini televideniya da namoyish etish kerak.

Mening fikrlarim oqishni boshlagandan keyin aytaman ularni amalda qolib ko'rsataman

Modul 5 uchun mehnatini ayamay biz yoshlarga katta imkoniyatlar yaratib motivatsiya berayotganlaringiz uchun katta rahmat aytmogchiman

Bu uchrashudan keyin uzimga bulgan ishonchim eshishi shubhasiz inshaAllah

Февралда жуда зор лойиҳа, жамга чанкок йошларни дунё қарашини оштиради

Modul5 da ishtirok etishni xohlayman. Chunki IT sohaga qiziqishim katta

Modul5ga bardavom muvaffaqiyat tilayman! Va meni ham o'z safiga qo'shasa xursand bo'lardim, Chunki men ham shunday savobli ishlarda ishtirok etishni xohlayman!

Loyiha tashkilotchilariga mana shunday bepul uchrashuvlar o'tkazishayotgani uchun katta rahmat. Men iqtisodiyot yo'nalishi talabasiman, Behzod Hoshimov bilan uchrashishni anchaдан beri orzu qilaman. Nasib etasa, albatta, orzularim Modul5 orqali ushuladi va o'zim uchun kerakli bilimlarni olaman. Modul5 loyihasiga kelajakdagi faoliyatida omad tilayman!

Bu ko'rsatuvni juda yoqtiram, TV orqali va YouTube orqali doimiy kuzatib boraman. Face to face ko'rish undanda qiziq boladi deb o'ylayman. In'vlarilada omad 🍀

Bunday turdagi anjuman va taqdimotlar hozirda im-lari, yuksalishlar bilan shug'ullanib kelayotgan insonlarga juda katta motivation boladi! Birqand ni ancha uzun vaqtdan beri kuzatib kelamiz, erkin fikrlash doirasi juda keng va talpiril! Omad!

Modul 5 loyihasi qattiq hurmat qilaman judayam kreativ ko'rsatuv har sonidan motivatsiya olaman qizqasi modul5 ko'rsatuvini ashaddiy muhassasman

# HAMKORLARIMIZ

- Yoshlar Ishlari agentligi
- Yoshlar kelajagimiz jamg'armasi
- Yoshlar Ittifoqi



BIZ IJTIMOIIY TARMOQLARDA



@MODUL 5

ULUG'BEK ISMATOV

**E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!**

Toshkent, 2021 y.



# DESIGN CLUB UZBEKISTAN

22.10.2020 y.

## DESIGN CLUB UZBEKISTAN

Dizayn va dizaynerlarni bir joyda birlashtirgan eng yirik dizayn jamiyati.  
Bu yerda dizayn sohasi mutaxassislari o'zlarining tajribalarini  
yosh dizaynerlarga yetkazishadi.

Design Club Uzbekistan bir oyda bir marta o'tkaziladi.

## AUDITORIYA TASNIFI

### YOSH:

14 - 45  
yoshgacha

### KASB:

- Dizaynerlar
- Marketolog
- Tadbirkorlar
- Reklama va Media sohasi vakillari

### HUDDUD:

- O'zbekiston
- Qozog'iston,
- Qirg'iziston
- Rossiya.

## IJTIMOYIY TARMOQDA QAMROV


### FACEBOOK

Har bir post o'rtacha  
5000 dan ortiq ko'rishlar



### INSTAGRAM

Ko'rishlar: 3000 dan ortiq  
Obunachilar: 1267 ta



# IJTIMOYIY TARMOQDA QAMROV



Eng ko'rilgan post (hozircha)  
33000 dan ortiq



O'rtacha ro'yxatdan o'tishlar soni:  
1200 dan ortiq



1-sonida  
ro'yxatdan  
o'tganlar  
soni

## AUDITORIYADAN FOTOLAR:





## SPIKERLARDAN FOTOLAR:



## EVENT HAQIDA FIKRLAR

Бундай тadbирни тез-тез утказиб туришлар имкон қадар мен juda xursandman bu soha b'iyichayani o'qituvchilar o'rgatuvchilar borligidan

O'tgan galgi eventlarga borishni juddalar xohlagandim, ammo Farg'onada ekanligim sabab imkon bo'lmagan. Borganlarning hammasida ajoyib taassurotlarni ko'rgandim. Mana endi o'zim ham borish imkoniga egaman!

Tashkilotchilar va targ'ibot ishlarga gap yo'q. Tadbirni intizorlik bilan kutaman. Men va ayolim birga boshga harakat qilaman.

Хамма event лар юкори даражада булип утган, ва буляпти

Men Qashqadaryo OAV Milliy assosiasidama muharrir bir nechta saytlarda muhbir bolib faoliyat yurtaman. Grafik dizaynini o'rganish men uchun juda kerak.

Изоҳсиз, зор proekt! omad

O'tgan galgi tadbirdan katta motiv oldim. dizimga bolgan ishonchim oshdi, bu safarig'idan ham shuni kumb qolaman.

Kelajakda xalqaro miqosda hert eventlar o'tkazish imkoni bo'lmaymi? Arxiv uchun internet orqasida incha ju o'ta tarbi buli chet ellik ulaymerla bilan herta online meetinglar uyushtirisa judayam ulzig bolardi. Buni bora bir deb uylayman.

Design Club loyahasini boshqa shahrlarda ham aynan shunday atmosferada otkazishni yo'lga qo'yish kerak

## EVENT OAV DA



MY5 kanali «Markazda» ko'rsatuvl



**O'ZBEKISTON YOSHLAR FORUMI 2020**  
**LOYIHASIDA «YILNING ENG YAXSHI YANGI LOYIHASI»**  
**NOMINATSIYASI G'OLIBI**

DESIGN CLUB TARKIBIDA O'TKAZILISHI REJALASHTIRILAYOTGAN  
HAMDA BOSHLANGAN LOYIHALAR

 DC VLOG

Dizaynerlar bilan intervyu qilinadi,  
eng ko'p kasbiy savollarga mashxur  
dizaynerlardan video javoblar olinadi.

 DC BOOKS

Dizayn sohasiga oid kitob va  
qo'llanmalar o'zbek tiliga tarjima  
qilinadi. Shu kungacha biror  
dizayn kitobi o'zbek tiliga tarjima  
qilinmagan.

DESIGN CLUB TARKIBIDA O'TKAZILISHI REJALASHTIRILAYOTGAN  
HAMDA BOSHLANGAN LOYIHALAR

 DC TRAVEL


Dizaynerlar bilan viloyatlar va  
chet elga sayohatlar qilinadi.  
Mashxur ichki va xalqaro IT  
kompaniyalar bilan stajirovka  
hamda tajriba almashinuv  
qilinadi.

 DC CAMP

Dizaynerlar va dizayn o'quv markazlari  
o'rtasida chempionat tashkil qilinadi.  
Chempionat doirasida qatnashchilarga  
katta dizaynerlar tomonidan workshop  
hamda seminarlar uyushtiriladi.


## START BERISHGA TAYYORLANTIRILAYOTGAN KONTENTLAR (YOU TUBE VA TIK-TOK PLATFORMALARI UCHUN)

### DC VLOG



DC Vlog loyihasi uchun ilk intervyu syomkasi olindi. Intervyu montaj jarayonida.

### EVENTDA QATNASHGAN SPIKERLAR NUTQIDAN VIDEOLAR TO'PLAMI




Spikerlar nutqlari mavzulashirilgan holda qismlarga bo'linib, you tube va tik-tok ga qo'yiladi.

## START BERISH JARAYONIDAGI KONTENT

### DC BOOKS

«The Non-Designer's Design Book» kitobi tarjimasi boshlangan.

Chop etish, nashriyot bilan kelishuv, elektron format tayyorlash va sotish rejalari aniqlashtirib bo'lingan.




## XALQARO SPIKERLARNI JALB QILISH

### JENYA STRUK



Rossiyada 1-raqamli, xalqaro TOP 10 reytingiga kirgan «Depot Branding Agency» dizayn studio si art-direktori, eng kuchli rus dizayner ayollaridan biri

U may oyi oxirida vaqti borligi va Design Clubda chiqa olishini aytgan. Uni Toshkentga, Icyihaga mehmon sifatida olib kelish rejalashtirilgan



## TADBIRDA QATNASHGAN DIZAYNERLAR



**TEMUR SA'DIY**

O'zbekistonda eng kuchli dizaynerlar  
Tashkent, Tashkent



**LAZIZ HAMIDOV**

Rossiyada eng kuchli dizaynerlar  
Moskva, Tashkent



**JAMSID XOLIQULOV**

Rossiyada eng kuchli dizaynerlar  
Moskva, Tashkent



**ZOKIR XALMATOV**

Rossiyada eng kuchli dizaynerlar  
Moskva, Tashkent



**XUDIYOR NORCHAYEV**

Rossiyada eng kuchli dizaynerlar  
Moskva, Tashkent



**FARRUX SHARIPOV**

O'zbekistonda eng kuchli dizaynerlar  
Tashkent, Tashkent



**AHMAD SOBITOV**

Rossiyada eng kuchli dizaynerlar  
Moskva, Tashkent



**A'ZAM SAIDUMAROV**

Rossiyada eng kuchli dizaynerlar  
Moskva, Tashkent



**SARDOR ODIROV**


Rossiyada eng kuchli dizaynerlar  
Moskva, Tashkent

## TADBIRNI O'TKAZISHDA QATNASHGANLAR

- MPMG jamoasi
- Yoshlar ishlari agentligi
- Yoshlar ittifoqi
- Yoshlar ijod saroyi

**Barcha  
qo'llab-quvvatlaganlarga  
rahmat aytamiz!**

## IJTIMOY TARMOQLARIMIZ

    /DESIGNCLUBUZ

Ulug'bek Ismatov

# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

Design Club Uzbekistan  
Toshkent, 2021 y

# 01. MARKETING UZ


O'ZBEK TIJDAGI IJK MARKETOLOGLAR HAMIJIYATI

## LOYIHA MAQSADI

"Marketing Uz" loyihasi har oyda O'zbekistondagi taniqli soha ekspertlari ishtirokida o'tkaziladigan mahorat darslaridir. Loyihaning asosiy maqsadi yoshlarni sohaga qiziqtirish, biznes egalari uchun marketing bo'yicha foydali ma'lumotlar yetkazish hamda soha qiziquvchilari hamjamiyatini shakllantirish

02.





Loyihaning har bir sonida 3 ta o'z sohasining mutaxassislaridan iborat jamoa turli mavzularda 15 daqiqadan nutq so'zlaydi. Shuningdek, har bir nutq so'ngida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarni spikerga berish va javob olish imkoniga egalar

03

04.

Arizalar: 1500+

Ishtirok etgan: 600+



Diyor  
Mirzaahmedov

Zamira  
Rahmanova

Feruzxon  
Yoqubxo'jayev

## Marketing Uz-1



"Marketing Uz" loyihasi  
1-sonidan



Azizbek Umaraliyev

Jo'rabek Babayev

Alisher Atametov

## Marketing Uz-2



"Marketing Uz" loyihasi  
2-sonidan

## O'zbek tilidagi ilk marketologlar hamjamiyati

Instagram/ marketinguz\_event

Telegram/ marketinguz\_event

Facebook/ marketingevent

YouTube/ marketinguz



09

Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi  
Jamoatchilik kengashining  
2021-yil 27-martdagi yig'ilishi  
3-sonli bayoniga  
4-ilova

**“O‘zbekiston yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash markazi” NNTning  
“Biznesga qadam” loyihasi yuzasidan amalga oshirilgan  
ishlar to‘g‘risida taqdimot shaklidagi  
Hisoboti**



O'zbekiston Yoshlar  
Tadbirkorligini Qo'llab  
Quvvatlash Markazi

## **Biznesga qadam loyihasi**

# Biznesga Qadam

- Praktikum
- Stajirovkalar
  - DeKco
  - Dvil
  - Compass Consulting
  - Chopar
  - Les Altes
  - Cambridge Learning Center
  - Korzinka.uz
  - HM Partners
  - MPMG
  - IT Park

- Теоретическая часть урока
- Статистика, мотивационная часть, визуализация в виде схем, таблиц, диаграмм и пр.
- Кейсы
- Тестирование, интерактивные элементы

Реферанс: <https://vector.education/course/2/lesson/2>

Дистанционно обучить от 250 до 2500 молодых людей бизнесу в течение 1 года

Лендинги с уроками и система регистрации учеников

Структура

Задача

Исполнение

## Темы и спикеры

### 01 - Tadbirkor kim?

- 1.1 - Tadbirkorlik mohiyati nimada? Tadbirkorlar jamiyatda qanday vazifani bajaradilar?
- 1.2 - Tadbirkorlikka o'qish kerakmi?
- 1.3 - Tadbirkorlik hayotimizda - kundalik ishlarimiz, o'qishlarimiz davomida tadbirkorlik bilan shug'ullanamiz, garchi buni sezmasak ham.

Spiker: Alisher Akmaljonov

### 04 - Boshlang'ich kapital izlash

- 4.1 - Investorlar: ular nimaga qarab pul tikadi?
  - 4.2 - Imtiyozli kreditlar: O'zbekistonda qanday imkoniyatlar bor?
  - 4.3 - Biznes uchun grantlar: ular bormi? Qanday qilib tadbirkorlik uchun grant jalb qilsa bo'ladi?
- Spiker: Ujamon Rahimjonov (4.2), Anvar Ibrayev (4.3), Alisher Usmonov (4.1)

### 07 - Tadbirkorlikda Project Management

- 7.1 - Jarayonlarni boshqarish uslublari: Agile, Scrum, Kanban
  - 7.2 - Biznesni boshqarish uchun foydali instrumentlar: Trello, Bitrix, Asana va boshqalar
  - 7.3 - Chuqur o'rganish uchun qayorga borilish kerak? Project Management bo'yicha TDP kurslar
- Spiker: Xasan va Xusan Mamasaidovlar

### 10 - Biznes jarayonlari optimallashtirish

- 10.1 - Hammasi yaxshi bo'lsa ham, rivojlanish kerak - mavjud biznesni analiz qilish va optimallashtirish nimaga kerak?
  - 10.2 - Biznesni takomillashtirish asoslari: metrikalar, qaror qabul qilish mantiqi, foydali instrumentlar
  - 10.3 - Krisis vaziyatlar uchun «B rejasi».
- Spiker: Ulug'bek Xojahmedov

### 02 - O'z yo'nalishimizni tanlaymiz

- 2.1 - Birinchi o'rinda: istak Siz muvaffaqiyatli bo'lishingiz uchun o'zingizga yoqqan ishni qilishingiz kerak
  - 2.2 - Pul topish asoslari: emas. Buyuk tadbirkorlar pul topish uchungina biznes ochmaganlar
  - 2.3 - O'zbekistonga hozir qanday tadbirkorlar kerak? Muhim sohalarda haqida gaplashamiz
- Spikerlar: Xikmat Abdurahmonov (2.2, 2.3), Shahram Giyasov (2.1)

### 05 - Yuridik masalalar

- 5.1 - Yuridik shaxslar turlari: YaTT, MCHJ, OAJ va boshqalar, ularning farqi nimada, aynan sizga qaysi biri kerak?
  - 5.2 - Yuridik shaxsni ochish va tugatish: qayerga borish kerak, qancha pul keladi, qanday hujjat kerak
  - 5.3 - Tadbirkorga yurist nimaga kerak? Biznesdagi mayda yuridik jarayonlar
- Spiker: Yunst

### 08 - Jamoa shakllantirish

- 8.1 - HR nima? Biznesda kadrlar tizimi qanday ishlashi kerak? Stajirovkalar nega muhim?
  - 8.2 - Rahbar - xodim munosabatlari biznesda atmosfera yaratish
  - 8.3 - Xodimlarga motivatsiya berish
- Spikerlar: Orian-Mehroj (8.1), Alisher Sa'dullayev (8.2), Jahongir Ortiqxo'jayev (8.1)

### 03 - Biznes sari ilk qadamlar

- 3.1 - Biznes reja nima? U qanday tuziladi?
  - 3.2 - Pitching, taqdimotlar va biznesingiz - upakovkasi.
  - 3.3 - Moliyaviy model: investorni ko'ndiradigan raqamlarni topish
- Spiker: Jahongir Pulatov (3.2), Ahmad Melibayev (3.1, 3.3)

### 06 - Moliyaviy masalalar

- 6.1 - Buxgalteriya biznesga nega kerak?
  - 6.2 - Solliqlar: O'zbekistonda tadbirkor qanday solliqlar to'laydi? Imtiyozlar bormi?
  - 6.3 - Biznesdagi pullarni nazorat qilish: moliyaviy model, metrikalar, LTV va boshqalar
- Spiker: Shuhrat aka (6.2), kuchli buxgalter/finansist

### 09 - Sotish vaqti keldi

- 9.1 - Sotuv asoslari: odamlar nega xarid qiladi?
  - 9.2 - Sotuv instrumentlari: sovuq va issiq lidlar, skriptlar va «sotuvlar voronkasi».
  - 9.3 - Sotuvlarni kengaytirish: yangi hududlarni qanday zabt etish mumkin?
- Spiker: Ibragim (Juliyamov) (9.1), Jahongir Pulatov (9.2), Murod Nazarov (9.3)

## Suratga olish jarayonlari

Ulug'bek  
Hojiaxmedov



Usmon Rahimjanov



Jahongir  
Pulatov

Xikmat Abdurahmonov





**Медиа план проекта «Biznesga Qadam»**

№	Каналы продвижения	Охват	Расходы в месяц	Дата
1	Наружная реклама (1-билборд)	100 000	3500 000	Апрель
2	Наружная реклама (1-LED экран)	70 000	5000 000	Апрель
3	СМС рассылка	2 000	1100 000	После создания всего курса
4	Таргетированная реклама в соц.сетях	100 000	15000 000	Апрель
5	Рекламные ролики (тизеры) на канале МУ5, Ёшлар	1000 000	0	Апрель
6	Брифинг с журналистами в Национальном пресс-клубе	600 000	0	После заседания общественного совета
7	Публикация статей в изданиях	1000	0	Апрель
8	Размещение рекламы у блогеров	100 000	0	Апрель
10	Встречи со студентами во всех ВУЗах Ташкента и размещение стенда Центра в них	480 000	0	Апрель
11	Размещение стендов на всех крупных базарах	1000 000	0	Апрель
12	Интервью на радио	5 000	0	Апрель
13	Реклама в метро и автобусах	9000 000	30000 000	Апрель
14	Реклама на экранах в кафе	10 000	10000 000	Апрель
15	Тематические группы в телеграм	1500 000	4000 000	Апрель
16	Оплата услуг дизайна		5500 000	
	<b>ИТОГО</b>	<b>13986 000</b>	<b>74100 000</b>	

- Теоретическая часть урока
- Статистика, мотивационная часть, визуализация в виде схем, таблиц, диаграмм и пр.
- Кейсы
- Тестирование, интерактивные элементы

Референс: <https://vesti.education/course2/lesson/2>

Дистанционно обучить от 250 до 2500 молодых людей бизнесу в течение 1 года

Лендинг с уроками и система регистрации учеников

Структура

Задача

Исполнение

## Biznesga Qadam



## Тесты и спикеры

### 01 - Tadbirkor kim?

- 1.1 - Tadbirkorlik mohiyati nimada? Tadbirkorlar jamiyatida qanday vazifani bajaradilar?
- 1.2 - Tadbirkorlikka o'qish kerakmi?
- 1.3 - Tadbirkorlik hayotimizda - kundalik lahiarimiz, o'qishlarimiz davomida tadbirkorlik bilan shug'lanamiz, garchi buni sezmasak ham.

Spiker: Alisher Akmaljonov

### 04 - Boshlang'ich kapital izlash

- 4.1 - Investitorlar: ular nimaga qarab pul tikadi?
- 4.2 - Imtiyozli kreditlar: O'zbekistonda qanday imkoniyatlar bor?
- 4.3 - Biznes uchun grantlar: ular bormi? Qanday qilib tadbirkorlik uchun grant jalb qilsa bo'ladi?

Spiker: Usmon Rahimjonov (4.2), Anvar Ichayev (4.3), Alisher Usmonov (4.1)

### 07 - Tadbirkorlikda Project Management

- 7.1 - Jarayonlarni boshqarish uslublari: Agile, Scrum, Kanban
- 7.2 - Biznesni boshqarish uchun foydali instrumentlar: Trello, Bitrix, Asana va boshqalar
- 7.3 - Chuqur o'rganish uchun qayorga borishim kerak? Project Management bo'yicha TOP kurslar

Spiker: Xasan va Xusan Mammasaidovlar

### 10 - Biznes Jarayonlarni optimallashtirish

- 10.1 - Hammasi yaxshi bo'lsa ham, rivojlanish kerak: mavjud biznesni analiz qilish va optimallashtirish nimaga kerak?
- 10.2 - Biznesni takomillashtirish asoslari: metrikalar, qaror qabul qilish mantiqi, foydali instrumentlar
- 10.3 - Kriza vaziyatlar uchun «B rejasi».

Spiker: Ulug'bek Xojahmedov

### 02 - O'z yo'nalehimizni tanlaymiz

- 2.1 - Birinchi o'rinda: Istak. Siz muvaffaqiyatli bo'lishingiz uchun o'zingizga yoqqan ishni qillahingiz kerak
- 2.2 - Pul topish asoslari emas. Buyuk tadbirkorlar pul topish uchungina biznes ochmaganlar
- 2.3 - O'zbekistonda hozir qanday tadbirkorlar kerak? Muhim sohalar haqida gaplashamiz

Spikerlar: Xikmat Abdurahmonov (2.2, 2.3), Shahram Giyasov (2.1)

### 05 - Yuridik masalalar

- 5.1 - Yuridik shaxslar turlari: YAT, MCHJ, (JA) va boshqalar, ularning farqi nimada, aynan sizga qaysi biri kerak?
- 5.2 - Yuridik shaxsni ochish va tugatish: qayerga borish kerak, qancha pul ketadi, qanday hujjat kerak
- 5.3 - Tadbirkorga yurist nimaga kerak? Biznesdagi mayda yuridik jarayonlar

Spiker: Yunus

### 08 - Jamoa shakllantirish

- 8.1 - HR nima? Biznesda kadrlar tizimi qanday ishlashi kerak? Stajirovkalar nega muhim?
- 8.2 - Rahbar - xodim munosabatlari: biznesda atmosfera yaratish
- 8.3 - Xodimlarga motivatsiya berish

Spikerlar: Oriqon-Mehroj (8.1), Alisher Sa'dullayev (8.2), Jahongir Ortixojayev (8.1)

### 03 - Biznes sari ilk qadamlar

- 3.1 - Biznes reja nima? U qanday tuziladi?
- 3.2 - Pitching, taqdimotlar va biznesingiz «upakovkasi».
- 3.3 - Moliyaviy model: investorni ko'ndradigan raqamlarni topish

Spiker: Jahongir Pulatov (3.2), Ahmad Melibayev (3.1, 3.3)

### 06 - Moliyaviy masalalar

- 6.1 - Buxgalteriya biznesga nega kerak?
- 6.2 - Soliqlar: O'zbekistonda tadbirkor qanday soliqlar ko'laydi? Imtiyozlar bormi?
- 6.3 - Biznesdagi pullarni nazorat qilish: moliyaviy model, metrikalar, LTV va boshqalar

Spiker: Shuhrat aka (6.2), kuchli buxgalter/finansist

### 09 - Sotish vaqi keldi

- 9.1 - Sotuv asoslari: odamlar nega xarid qiladi?
- 9.2 - Sotuv instrumentlari: sovuq va issiq lidlar, skriptlar va «sotuvlar voronkasi».
- 9.3 - Sotuvlarni kengaytirish: yangi hududlarni qanday zabt etish mumkin?

Spiker: Ibragim Guliyamov (9.1), Jahongir Pulatov (9.2), Murod Nazarov (9.3)

**Jamoatchilik kengashi tomonidan moliyalashtirilishi rad etilgan loyihalar to'g'risida  
MA'LUMOT**

T/r	Tashkilot nomi	Loyiha nomi	So'ralayotgan mablag' miqdori (mln. so'm)	Loyihaning maqsadi	Loyihadan kutilayotgan natija	Loyihani takomillashtirish yuzasidan izoh
1.	Respublika yosh olimlar kengashi NNT	"Yosh olim" ilmiy onlayn jurnali	400,0	Respublika yosh olimlar Kengashining nizomida ilmiy jurnal ochish masalasi qo'yilgan. Bu orqali Respublika olimlarini bir maqsad atroda to'plash va ilmiy faoliyatlariga ko'maklashish.	Ilmiy onlayn jurnal 1 yilda 4 marotaba chop etiladi. Ish jaroyonida maqolalar ko'p kelsa ham 2 oyda bir marota chiqishi ham mumkin.	Loyiha buyurtma talablariga mos kelmaganligi sababli moliyalashtirish maqsadga muvofiq deb topilmadi.
2.		"Loyihadan biznesgacha" yoshlar uchun biznes saboqlari loyihasi	300,0	Yoshlarga tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish uchun to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi qo'llanma yaratish.	Respublikamizdagi tadbirkorlik va biznesga qiziquvchi yoshlar uchun motivatsion qo'llanma yaratiladi.	Loyiha buyurtma talablariga mos kelmaganligi sababli moliyalashtirish maqsadga muvofiq deb topilmadi.
3.	O'zbekiston yosh fermerlari Kengashi NNT	"Yoshlar - qishloq xo'jaligining yorqin kelajagi" loyihasi	300,0	Yoshlarning agrar sohaga bo'lgan qarashlarini o'zgartirish - sohadagi nomaqbul qo'llanadigan "qora" so'zlarni ijobiy tomonga o'zgartirish hamda sohaning zamonaviy imidjini shakllantirish.	O'zbekiston Respublikasi agrar sohaning siyosatini ishlab chiqishda yoshlarning ishtirok etishini yanada kengaytirish.	"Yosh fermerlar kengashi" NNT tomonidan tanlovda ishtirok etish uchun kelib tushgan har ikkala loyihalari amalga oshirish va loyihalar yakuni bo'yicha erishiladigan natijalari nuqtai nazaridan bir-birini takrorlaganligi hamda talabgorning ushbu loyihasini amalga oshirish uchun shaxsiy va boshqa hamkorlar ulushi jalb qilinmaganligini inobatga olib, ushbu loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyati cheklangan deb topildi.

4.	“Imkoniyat” NNT (Navoiy)	“Yosh tadbirkorlar” loyihasi	275,7	Ota-onalarning moddiy yordamisiz, katta aloqalarsiz, yoshlarni o‘z biznesini boshlashiga turtki beradigan, tadbirkorlarning misollarini yoritib berish.	Loyiha <b>20 daqiqalik 12 ta</b> filmdan iborat bo‘lib, unda yoshlar o‘zlarining hikoyalarini - qanday qilib noldan boshlaganliklari, haqida batafsil tushintirib berishadi.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-fevraldagi 135-sonli qaroriga asosan va tanlov shartlariga muvofiq hujjatlar to‘liq taqdim etilmagan.
5.		“UzNet tarixi” loyihasi	286,7	IT sohasidagi eng yirik loyihalarni ko‘rsatish orqali yoshlarga motivatsiya berish	Loyiha <b>30-50 daqiqalik 6 ta</b> filmdan iborat bo‘lib, internet sohasida faoliyat yuritadigan insonlarni aholiga kengroq yoritishga qartilgan video rolklar tayyorlanadi.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-fevraldagi 135-sonli qaroriga asosan va tanlov shartlariga muvofiq hujjatlar to‘liq taqdim etilmagan.
6.	“Samarali ta’lim” xususiy korxonasi	O‘quvchi va o‘qituvchi yoshlar uchun intensiv vizual qo‘llanma yaratish loyihasi	3 303,5	- Respublikamizda o‘qituvchi va o‘quvchi yoshlarga fanlarni o‘qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish. - vizual xotirani jonlantirish va yoshlar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanib yoshlarga sodda va tushunarli usullarda fanlarni o‘rgatish; - Yoshlarni mustaqil fikrlash salohiyatini oshirib hayotga o‘z o‘rnilarini topishga ko‘maklashish	- Fanlarni o‘qitishning samarali usul va vositalaridan foydalanish, o‘quvchilarning kitob bilan, ayniqsa, elektron-vizual audio kitoblar bilan muloqotini mustahkamlash; - ta’lim sifatini mustahkamlash va o‘qituvchilar uchun innovatsion qo‘llanma ishlab chiqish.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-fevraldagi 135-sonli qaroriga asosan “Samarali ta’lim” xususiy korxonasi tashkiliy-huquqiy shaklidan kelib chiqib, tanlovda ishtirok etish imkoniyati mavjud emas.
7.	“Ayol va shodlik” NNT (Surxondaryo)	“Kasblar olami” loyihasi	386,9	Yoshlarning qiziqish va intilishlari asosida kasb-hunar o‘rganishga jalb qilish, daromad topishga, biznesga yo‘naltirish.	O‘quv kurslarda o‘qish muddati <b>2-oy</b> har bir kursda <b>15</b> nafar yoshlar ishtirok etadi. <b>Jami: 210 nafar</b> yoshlar.	Tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan ushbu loyihaning maqsad va vazifalari tanlov mavzusiga hamda tanlov yo‘nalishlariga to‘g‘ri kelmaganligi, shuningdek loyihani amalga oshirilishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining, shu jumladan tarmoq va hududiy dasturlarning ijrosiga ko‘maklashishni nazarda tutmasligini inobatga olib, mazkur loyihani davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida moliyalashtirish maqsadga

						muvofiq deb topilmadi.
8.	“Yoshlar ovozi gazetasi Tahririyati” MCHJ	“Yangi O‘zbekistonda hamma tadbirkor bo‘lishi lozim!” loyihasi	501, 1	Loyihaning maqsadi yoshlar ongida zamonaviy biznes ko‘nikmalari va psixologiyasini shakllantirish, madaniyati va bilimlarini kengaytirishdan iboratdir.	Loyiha doirasida <b>1500 nusxa</b> gazeta chop etilib, yoshlar auditoriyasiga keng kirib borish maqsadida yurtimizdagi davlat oliy ta‘lim muassasalarining kutubxonalariga bepul yetkazib beriladi.	Tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan ushbu loyihaning maqsad va vazifalari tanlov mavzusiga hamda tanlov yo‘nalishlariga to‘g‘ri kelmaganligi, shuningdek loyihani amalga oshirilishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining, shu jumladan tarmoq va hududiy dasturlarning ijrosiga ko‘maklashishni nazarda tutmasligini inobatga olib, mazkur loyihani davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida moliyalashtirish maqsadga muvofiq deb topilmadi.
9.	“Yosh kuch” jurnali	“Yoshlar mamlakati – O‘zbekiston!” maxsus soni loyihasi	567, 5	Ushbu loyiha jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan jarayonlarga befarq va tushkunlik ruhida yashayotgan ishsiz yoshlarni uyg‘otish va ularni faol ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb qilishga qaratilgan.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan uchrashuvida (yoshlar forumi) aniq belgilab berilgan topshiriqlaridan kelib chiqib 3 ta maxsus sonini chop etish. Har bitta sonidan 500 ming tadan. <b>Jami 15 000 ta.</b>	Tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan ushbu loyihaning maqsad va vazifalari tanlov mavzusiga hamda tanlov yo‘nalishlariga to‘g‘ri kelmaganligi, shuningdek loyihani amalga oshirilishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining, shu jumladan tarmoq va hududiy dasturlarning ijrosiga ko‘maklashishni nazarda tutmasligini inobatga olib, mazkur loyihani davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida moliyalashtirish maqsadga muvofiq deb topilmadi.